

Mulohaza

Nodavlat ta'lim muassasalari ishonchsizmi?

Bugungi kunda nodavlat va davlat ta'limi o'rtasida raqobat bor. Nodavlat ta'lim muassasalari dastlab oliy ta'lim bozorida davlat universitetlariga kira olmagan, ammo o'qishga xohishi va mablag'i yetarli kontingentni o'ziga jalb qilish, yaxshigina daromad olishni ko'zlagan bo'lsa, endilikda ta'lim bozorida o'z o'mini topishni maqsad qila boshladi. So'nggi 2-3 yilda esa ularning soni shu qadar ko'paydiki, endi bu bozorda o'z o'mini saqlab qolish uchun ta'lim sifati va mijozga qulay servis ko'rsatishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim berish sifati oshdi.

Ta'lim bozorining kattaligi va rang-barangligi mijoz uchun tanlash imkoniyatini beradi. Nodavlat OTMda yo'nalishlar mehnat bozori ehtiyojlariga qarab o'zgartirib boriladi. Bu esa yangi mutaxassislik va kelajak kasblari bo'yicha zamonaviy kadrlar tayyorlashga yordam beradi. Ammo fuqarolarning ong osti tafakkurida turli stereotiplar shakllangan:

- nodavlat universitetlar tugatilishi mumkin;
- nodavlat universitetlarning diplomini tan olinmasligi mumkin;
- nodavlat ta'lim muassasida pul to'lasa o'qitaveradi;
- nodavlat ta'lim muassasida eng bilimsiz talabalar o'qiydi va hokazo.

Shu stereotiplarni ketma-ket tahlil qilamiz.

So'nggi yillarda turli kompaniyalar yoki tashkilotlarning tugatilishi holatlari bot-bot uchrayibdi. Tugatilgan tashkilotlar tarixiga nazar solsak, davlat tashkilotlari optimallashtiriladi yoki rebranding bo'ladi. Nodavlat kompaniyalar esa noqonuniy faoliyat aniqlanganda yopilishi mumkin. Xo'sh, davlat talabalarini bajarib, litsenziyani qo'lga kiritgan, faoliyati davomida huquqiy normalarga zid faoliyat olib bormagan tashkilot nega tugatiladi? Bu stereotipning tag asosi nimada? Qaysi tadbirkorning biznesini davlat noqonuniy asnoda shunchaki to'xtatib qo'yanini ko'rganisiz?

“Diplom tan olinmasligi mumkin” degan stereotip. Modomiki, universitet faoliyatni yuritayptimi, demak uning davlat tomonidan berilgan litsenziyasi bor. Qaysi universitetning diplomidan shubha qilsangiz, eng avvalo, o'sha nodavlat OTMning litsenziya va sifat sertifikatlarini so'rang!

“Nodavlat OTMda eng bilimsiz talabalar o'qiydi” degan stereotipga kelsak. Bilamizki, so'nggi yillarda turli imtiyozlar sabab davlat OTMlariga kirish bali yuqori bo'lib ketmoqda. O'rta miyona

biladigan abituriyentlar qabul kvotalarining shohsupasini egalayotgani, bilimlilar talabalar esa ba'zan hatto shartnoma asosida ham o'qishga kira olmayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Yaqinda shunday vaziyatni kuzatdim. Opa-singilning farzandi birga repetitora qatnab yuridik yo'nalishga hujjat topshirdi. Testni 3 bahoga yechib yurgan opaning o'g'li harbiy otasining imtiyozli sabab yuz foiz grantga qabul qilindi, singilning 10 tadan 10 ta to'g'ri topadigan imtiyozsiz o'g'li esa shartnoma asosida ham o'qishga qabul qilinmadi. Tanlov fanlarning 3-4-blokidagi olingan past ball ham o'qishga kira olmaslikka asos bo'lishi mumkin. Lekin abituriyent birinchi blokni a'lo darajada o'zlashtirgan bo'lishi ham mumkin. Xullas, bu stereotip ham o'zini oqlamaydi.

Yigirma yilga yaqin davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida birdek faoliyat olib borgan davlat sifatida ayta olamanki, nodavlat universiteti yoki nodavlatni, talabalar birdek saralangan bo'lmaydi. Ular ichida bilimlilar, o'rtaacha va o'qimaydigan talabalar uchraydi. Agar professor o'qituvchi o'sha bilimi o'rtaacha yoki o'qimaydiganlarni o'stirish olish va rivojlantirishga o'zida motivatsiya topa olmasa, bilimsiz talaba o'qishni shu turidagi bitirib ketaveradi. Ish beruvchi esa uning diplomini emas, qobiliyati va bilimiga e'tibor qaratadi. Talaba bilan individual ishlash esa nodavlat ta'lim muassasalarida ko'proq uchraydi. Sababi, jamoada ichki muhitning sog'lomligi, ortiqcha qog'ozbozlik va boshqaruv vazifalarning o'qituvchi zimmasiga yuklanmasligi o'z ishiga bo'lgan mehmri kuchaytiradi.

Davlat OTMlarida professor-o'qituvchilarning darsdan tashqari turli ishlarga jalb etilishi, qog'ozbozlikning hamon mavjudligi ishlashga motivatsiyaning yo'qolishiga sabab bo'ladi. Shu yil yozda davlat oliy ta'lim muassasalaridan 60 dan ziyod

ilmiy darajali professor-o'qituvchi kafedramizga ish izlab keldi. Ular yuqorida sanalgan bir qator muammolar, shuningdek, universitetdagi ichki guruhbozlikdan ishlashga xohishi yo'qligi sabab ishdan ketmoqchiligini ta'kidlashdi. Endi aytinch, shunday karyeraviy bilan auditoriyaga kiradigan ustozning o'zlashtirishi past talabalarni rivojlantirishga motivatsiyasi bo'ladimi? Oliy ta'lim muassasasini tanlayotganda ko'chadagi stereotiplarga ishonib qolmang. Borib o'zingiz tanlagan muassasaning litsenziyasi, ta'lim sifati bilan tanishing!

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida ro'yxatdan o'tgan eng birinchi nodavlat OTM hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro akkreditatsiya – KAZSEE va IQAA sertifikatlariga ham ega. Endilikda QS reytingiga kirish bo'yicha ham ishlar jadal ketmoqda. Injeneriya, AT, moliya, san'at, pedagogika kabi 38 ta zamonaviy ta'lim yo'nalishlarida ta'lim 3 tilida – o'zbek, rus, ingliz tillarida olib boriladi. Universitetimizda Amerika, Hindiston va MDH davlatlaridan 100 ga yaqin talaba ham tahsil olmoqda. Darslar Xitoy, Janubiy Koreya, AQSH, Angliya va Italiyadan kelgan malakali professorlar tomonidan olib boriladi. Grantlar, chegirmlar, talabalar almashinuvi va xorijiy stajirovkalar mavjud. Bu yildan boshlab tibbiyot yo'nalishi talabalari uchun 500 o'rinni zamonaviy yotoqxona ishga tushiriladi.

Men kafedra mudiri bo'lgan Xitoy-ingliz tarjimonlik yo'nalishida xitoylik ustozlar talabalarga xitoy tilini o'rgatishadi. Darslar ingliz tilida olib boriladi. Talabalar 2-kursning o'zidayoq Hsk4, Hsk5 xitoy tilini bilish sertifikatlarini qo'lga kiritmoqdalar. Xitoyda 2+2 dasturi orqali 100 foiz grant asosida tahsil olayotgan talabalar ham bor. Xo'sh, aytinch, eskirgan stereotiplardan voz kechish vaqti kelmadimikan? Butun dunyoda OTMlarga kirish oson (motivatsion xat, til sertifikatiga va suhbat asosida) o'qish va bitirish qiyin.

O'zbekiston nodavlat OTM industriyasi ham jahon talabalariga moslashmoqda. Bu bozorda sifatni va eng zo'r mutaxassislarni talab, ishlash uchun xorijnikidan qolishmaydigan sharoitlarni yaratib bergan nodavlat ta'lim muassasalariga o'z o'mini topadi. Qolganlarni vaqt o'zi maydon chetiga chiqarib qo'yadi.

Gulnoza ODILOVA, filologiya fanlari doktori(DSc), professor, TKXU “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasini mudiri

Tashabbus

XXI asr – bu insoniyat taraqqiyoti tarixidagi tub burilish davri bo'lib, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va global axborot oqimlari kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ta'lim sohasida esa bu o'zgarishlar ayniqsa chuqur ko'zga tashlanmoqda: bugun maktablar, universitetlar va o'quv muassasalari sun'iy intellekt yordamida dars o'tmoqda, o'qituvchilar algoritmlar bilan ishlamoqda, talabalar esa raqamli muhitda mustaqil ta'lim olishga o'rganmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, UNESCO, OESD kabi yirik xalqaro tashkilotlar ta'lim sohasidagi global muammolarni tahlil qilar ekan, kelajakdagi o'qituvchi modeli haqida ham qayta-qayta ta'kidlamoqda: u raqamli savodxon, ijtimoiy mas'uliyatli, madaniy jihatdan uyg'unlashgan

ular bilim markazi emas, balki bilim oluvchilarni hayotga, texnologik muhitga va global raqobatdagi faoliyat yuritishini ta'minlashga, ularni murakkab kasbiy va hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror chiqarishga qodir mutaxassis sifatida shakllantirishga yetakchi figuradir. Shu sabab-

va milliy ta'lim qadriyatlarini uyg'unlashtirgan holda, talabalarning raqamli muhitda mustaqil faoliyat yuritishini ta'minlashga, ularni murakkab kasbiy va hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror chiqarishga qodir mutaxassis sifatida shakllantirishga yetakchi figuradir. Shu sabab-

“KELAJAK O'QITUVCHISI” MODEL: raqamli kompetensiya va kasbiy adaptatsiya uyg'unligi



va eng asosiysi – sun'iy intellekt bilan raqobat qila oladigan emas, balki u bilan hamkorlik qila oladigan shaxs bo'lishi kerak. Endilikda pedagogik faoliyat – bu faqat bilim berish emas, balki murakkab axborot muhitida yo'l ko'rsata oladigan raqamli yo'lbo'shchilik faoliyatidir.

Jahon ta'lim tizimi sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data), moslashuvchan o'qitish algoritmlari, gibrid ta'lim model-lari orqali yangilanish davrini boshdan kechirmoqda. Masalan, Janubiy Koreyada sun'iy intellekt o'qituvchining ishini tahlil qilib, metodik tavsiyalar beradi. Estoniyada esa barcha maktablar to'liq raqamlashtirilgan bo'lib, har bir o'quvchi uchun shaxsiy yuklanmoqda – ular nafaqat fan va metodikani, balki texnologiyani o'zlashtirgan, yangicha fikrlaydigan, global o'zgarishlar-ga tayyor o'qituvchilarni yetishtirishi lozim.

Ana shunday strategik muhitda Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan “Kelajak o'qituvchisi” konsepsiyasi nafaqat zamonaviy pedagogik jarayonlarga javob beruvchi, balki ularni belgilovchi milliy model sifatida e'tiborga loyiqdir. Ushbu konsepsiya o'zida dunyodagi ilg'or tendensiyalar, texnologik yondashuvlar

Zamonaviy pedagog modeli quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'zida mujassam etishi nazarda tutilmoqda:

1. AT savodxonlik – dasturlash va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, axborotni boshqarish va raqamli hamkorlikni yo'lga qo'yish.
2. Pedagogik dizayn – ta'lim jarayonini rejalashtirish, samarali tashkil etish va natijalarni tahlil qilish.
3. Metodik yondashuv – turli metodlarni qo'llash, interaktiv o'quv jarayonini yaratish, refleksiya va korreksiya imkoniyatlari-dan foydalanish.
4. Digital xavfsizlik – ma'lumotlarni himoya qilish, zararli kontentlarni aniqlash va axloqiy raqamli xulqni targ'ib qilish.
5. Baholash tizimi – shakllantiruvchi va yakuniy baholashni o'zaro uyg'unlashtirib, tahlil asosida amalga oshirish.
6. Moslashuvchanlik – turli auditoriyalar, texnologiyalar va o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslashish.

7. Kasbiy rivojlanish – mustaqil o'qish, hamkorlik qilish va tashabbuskorlikni rivojlantirish.

8. Til kompetensiyasi – xorijiy tillarni bilish orqali global ta'lim maydonida faol hamkorlik qilish.

Ushbu model bugungi kunda nafaqat bilim beruvchi, balki talabani mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga va hayotiy ko'nikmalarni egallashga yo'naltiruvchi pedagog shaxsini shakllantiradi. Raqamli davrning tezkor o'zgarishlari shuni talab qiladiki, o'qituvchi har bir darsni innovatsion ruhda tashkil etishi, yangi texnologiyalarni o'zlashtirib, ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishi lozim.

yaratish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Shu bilan birga, SI ta'limda baholash, monitoring va rag'batlantirish tizimlarini takomillashtirishda yangi imkoniyatlarni ochmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish esa ta'lim jarayonini interaktiv, zamonaviy va qiziqarli qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Onlayn platformalar, raqamli resurslar, virtual laboratoriyalar va simulatsiyalar orqali bo'lajak o'qituvchilarni keng qamrovli bilim olishga jalb qilish mumkin. O'qituvchining innovatsiyalarni o'z faoliyatiga muvaffaqiyatli joriy etish qobiliyati ta'lim sifati oshishiga, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, “Kelajak o'qituvchisi” konsepsiyasi doirasida zamonaviy texnologiyalarni egallash va qo'llash malakasini rivojlantirish ta'lim sifati-ni yaxshilash, o'qituvchilarning shaxsiy rivojlanishi va kelajak avlodni raqamli davr talablari darajasida tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

2025-yil avgust oyi holatiga ko'ra, loyiha doirasida universitetning 20 ga yaqin kafedrasida o'z yo'nalish va mutaxassislari-dan kelib chiqqan holda “Kelajak o'qituvchisi portreti”ni shakllantirish bo'yicha amaliy seminarlar tashkil etib, muhim tajriba va fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ldi. Universitet rektori G'ofurjon Muhammedov boshchiligidagi ushbu loyiha yaqin kelajakda o'zining ijobiy natijalarini beradi, degan qat'iy ishonchimiz bor.

Bu loyiha nafaqat O'zbekiston ta'lim tizimining jadal rivojlanishida, balki xalqaro maydonda ham o'z dolzarbligini va ahamiyatini yo'qotmasligiga ishonamiz. Chunki zamonaviy pedagogik yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish global ta'lim sifati-ni oshirishning asosiy omillaridan biridir. Shu tariqa,

“Kelajak o'qituvchisi” konsepsiyasida zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu esa ularni raqamli savodxonlikni mustahkamlash, sun'iy intellekt hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish qobiliyatini shakllantirish va innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishni talab etadi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim tizimini tubdan o'zgartirmoqda va o'qituvchi nafaqat bilim yetkazuvchi, balki texnologik transformatsiyaning yetakchi subyekti-ga aylangan.

Raqamli savodxonlik bo'lajak o'qituvchilarning zamonaviy ta'lim vositalarini to'g'ri va samarali qo'llash, axborotni tez va aniq izlash, tahlil qilish hamda avlod uchun barqaror hamda innovatsion ta'lim muhitini yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Bahodir ESHCHANOV, Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, fizika va matematika fanlari doktori, professor

Da'vat

Ilm nuri ostida o'qituvchilik: allomalarimiz izidan yangi avlod yurishi

Aziz hamkasblarim, qadrli do'stlarim, barchamiz o'quvchilarga bilim beramiz, mavzularni tushuntiramiz, ularni imtihonlarga tayyorlaymiz. Ammo “Asosiy vazifamiz nima?”, degan savolni unutmasligimiz kerak! Bugun bu savolga javobni O'zbekiston tarbiyalagan buyuk olimlar hayotidan izlasak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mana qarang, 780–850-yillar oralig'ida dunyo ilm-fanini sharaflagan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy nafaqat matematikaga asos soldi, u “Al-jabr” kitobini yozar ekan, aslida insonlarga tizimli fikrlashni, muammoni hal qilish qobiliyatini va sabrni o'rgatgan edi. Bugun bir o'quvchi-ga tenglama yechishni o'rgatish faqat matematikani o'rgatish emas, balki uning xarakteriga qat'iyat, tartib va mantiqni singdirishdir. Xorazm zaminidan chiqqan va yoshligida otasidan ayrilgan Abu Rayhon Beruniy Hindistonga safar qilib, u yerning madaniyati, astronomiyasi, matematikasi va tillarini chuqur o'rgangan. Uning ilgma bo'lgan qiziqishi va ochiq dunyoqarashi bizga shuni ko'rsatadi: yaxshi o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki turli fikrlarga ochiq, xolis va izlanuvchan ruhga ega bo'lgan insondir.

Islomning oltin davrida yashagan buyuk faylasuf, olim, astronom, mantiqshunos va musiqashunos Abu Nasr Forobiy ideal jamiyat faqat ta'lim orqali barpo etilishini aytgan. Unga ko'ra, o'qituvchilar jamiyatning eng muhim tayanchlaridir. Bugun bizga yuklangan vazifa – o'quvchilarimizni nafaqat akademik jihatdan muvaffaqiyatli, balki jamiyatga, hatto butun dunyoga foydali shaxslar qilib tarbiyalashdir. Axir bugun egoizm avjiga chiqqan, har kim “avval men” deyidigan bir davrda biz agar boshqalar uchun yashashni o'rgatolmasak, ularga ibrat bo'lolmasak va o'z xalqining qadr-qimmatini anglatolmasak... dunyo matematika olimpiadasidan necha g'oliblik olib kelganimiz nimani o'zgartiradi?!

Ibn Sino tibbiyotda inqilob yaratgan bo'lsa-da, bir vaqtning o'zida falsafa, psixologiya va ta'lim haqida chuqur fikr yuritgan. U yoshligidan yuzlab kitoblarni o'zlashtirgan edi. Ammo eng asosiy maqsadi – bu bilimlarni insoniyat manfaatiga xizmat qilishdir edi. Uning asarlari asrlar davomida dunyo universitetlarida o'qitilgan. Tibbiyotda insoniyat bir yuksak darajaga yetgan bo'lsa, bu fidokorliklarning ta'sirini qanday inkor etish mumkin?!

Ahmad al-Farg'oni astronomiya bilan shug'ullangan, bu sohani yo'naltirgan, lekin uning kuzatishlari faqat yulduzlarga emas, balki insonning o'ziga ham qaratilgan edi. Keng tafakkurli o'qituvchi o'quvchisining faqat bugungi holatini emas, balki ertangi salohiyatini ham ko'ra oladi va shunga qarab choralar ko'radi. Shunda birorta ham o'quvchi yo'qolib ketmasin, insoniyatga foydali tarzda bu partalardan yetishib chiqsin, deb yurakdan iltizor chekad.

Mirzo Ulug'bek Samarqandda tashkil etgan madrasasida matematika va astronomiyani chuqur o'rgatgan. U hukmdor bo'lsa-da, taxtni emas, ilmini tanlagan edi. Biz ham sinflarimizni faqat dars o'qitiladigan joy emas, balki fikrlar yaratiladigan markazlarga aylantira olishimiz mumkin.

Mana, masalaning asli: ba'zida o'quvchining nimani bilmasligini emas, nimaga ehtiyoji borligini aniqlash kerak bo'ladi. Ochlik faqat qorin ochligi emas, ba'zida e'tibor, ba'zida aql, ba'zida motivatsiya, ba'zida esa sevgi ochligidir. Bugungi zamon bizga shuni o'rgatdi: bilimning o'zi yetarli emas. Qadriyatlar bilan yo'g'rilmagan bilim noto'g'ri qo'llarda foydadan ko'ra ko'proq zarar keltiradi. Shuning uchun biz – o'qituvchilar, nafaqat bilim beruvchi, balki qadriyat ko'rsatuvchi, yo'l ko'rsatuvchilar bo'lishimiz kerak.

Bugun o'quvchilarimizga faqat fan emas, balki yurakka kiradigan, jon bag'ishlaydigan o'zbek qadriyatlarini, axloqiy tutumini, hamkorlikni, qiziquvchanlikni, ilgma mehmri, ijtimoiy mas'uliyatni va tabiatga hurmatni ham o'rgatishimiz kerak. Xuddi yuqorida qisqacha tilga olgan ajdodlarimiz kabi.

O'qituvchi sinfda nafaqat o'qitgan mavzulari bilan, balki o'quvchi bilan bog'lagan samimiyati, adolati va ko'rsatgan yo'l-yo'rig'i bilan iz qoldiradi. Chunki o'quvchi ustozining bilimidangina emas, xarakteridan ham o'rnak oladi.

Keling, o'qituvchilikni faqat kasb emas, balki sivilizatsiya qurilishining kaliti deb ko'raylik. Sinflarni to'r't devor emas, xarakterlar shakllanadigan, tafakkurlar unadigan bog'larga aylantiraylik. Zamonaviy ilm bilan an'anaviy hikmatni birlashtirib, yangi avlodni axloqli, qiziquvchan va ijodkor shaxslar qilib voyaga yetkazaylik. Bizdan keyin eslanadigan izlar qoldirish uchun bugun biroq ko'proq ishlaylik, biroq ko'proq seveylik, biroq ko'proq yarataylik.

Shoir bejiz aytmagan: “Osmonning ulug' gumbazi ostida qolgan yagona narsa – bu go'zal ovozdir...”.

Abdullah KURUDIREK, Tishk Xalqaro Universiteti, Erbil